

## TALABALARNI TA'LIMY QADRIYATLAR ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOHIYATI VA MANTIQIY JIHATDAN TAHLILI

**Choriyeva Surayyo Choriyevna**

Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim  
nazariyasi kafedrasida o'qituvchisi  
[surayyochoriyeva@gmail.com](mailto:surayyochoriyeva@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqolada ta'lim qadriyatlarining ijtimoiy va shaxs omiliga yo'nalganlik xususiyatini ochib beradi. Ijtimoiy qadriyatlar, shu jumladan, ta'limiy qadriyatlar ham shaxsni shakllantirishga xizmat qilishi, uning qadr-qimmatini oshirishi, pedagoglar tomonidan shaxs omilining ta'lim-tarbiya jarayonlarining yetakchi subyekti sifatida tan olishini ta'minlashi, unda erkin va mustaqil fikrlash, shuningdek, ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishi maqsadga muvofiqdir.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, qadriyatlar, ijtimoiy omil, yo'nalganlik, xususiyat, Ijtimoiy qadriyatlar, ta'limiy qadriyatlar, qadr-qimmat, pedagog, ta'lim-tarbiya jarayonlari, subyekt, ta'minlash, mustaqil fikrlash.

### АННОТАЦИЯ

В статье раскрывается направленность образовательных ценностей на социально-личностный фактор. Социальные ценности, в том числе и воспитательные, служат формированию человека, повышению его ценности, обеспечивают признание педагогами индивидуального фактора как ведущего субъекта воспитательных процессов, в котором свободное и независимое мышление, а также социальное желательное, чтобы оно помогало формировать навыки деятельности.

**Ключевые слова:** Воспитание, ценности, социальный фактор, направление, особенность, Социальные ценности, воспитательные ценности, достоинство, педагог, образовательные процессы, субъект, положение, самостоятельное мышление.

Xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori, ma'naviy dunyosi kundan-kunga boyib bormoqda. Bu esa mustaqil davlatimizning ma'naviy asosini tashkil qiladi. Demak, ma'naviyat qay darajada shakllangan bo'lsa, u shunchalik

taraqqiyotga xizmat qilgan. Milliy uygʻonish, milliy gʻurur, milliy tuygʻuning tiklanishi-bu milliy rivojlanish bilan uzviy bogʻliq boʻlgan tabiiy qonuniy jarayondir.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va anʼanalarimiz qayta tiklanib yanada rivojlangandagina jamiyatimizda oʻtkazilayotgan islohotlar muvaffaqiyatli amalga osha oladi, chunki maʼnaviy barkamol, maʼrifatli, ruhan bardam, yangicha tafakkurlash qobiliyatiga ega insongina istiqlol va taraqqiyot yoʻlini sharaf bilan oʻta oladi. Shunday ekan, xalqimizning madaniy merosi, yuksak maʼnaviy qadriyatlarini chuqur va atroflicha oʻrganib, ularni Respublikamizda yashovchi har bir insonning ongiga singdirib, ayniqsa, yosh avlodni maʼnaviy yetuk, fidoyi kishilar etib tarbiyalash hozirgi kunda dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Taʼlim qadriyatlarining ijtimoiy va shaxs omiliga yoʻnalganlik xususiyatini ochib beradi. Ijtimoiy qadriyatlar, shu jumladan, taʼlimiy qadriyatlar ham shaxsni shakllantirishga xizmat qilishi, uning qadr-qimmatini oshirishi, pedagoglar tomonidan shaxs omilining taʼlim-tarbiya jarayonlarining yetakchi subyekt sifatida tan olishini taʼminlashi, unda erkin va mustaqil fikrlash, shuningdek, ijtimoiy faollik koʻnikmalarini shakllantirishga yordam berishi maqsadga muvofiqdir. Binobarin, barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishga boʻlgan ehtiyoj rivojlanayotgan hamda yangicha ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan mavjud sharoitda yanada dolzarb maʼno va mohiyat kasb yetadi. "Oʻz xaq-xuquqlarini taniydigan, oʻz kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofidagi sodir boʻlayotgan voqea hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlarini bilan uygʻun holda quradigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak". Bu esa taʼlimiy qadriyatlarga bogʻliq. Shuning uchun ham yoshlarga taʼlimiy qadriyatlarni oʻrgatib tanlangan mavzuning dolzarbligini taʼkidlaydi.

Talabalarga taʼlimiy qadriyatlar taʼlim tarbiya jarayonlari muhim oʻrin egallashini ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan holda quyidagi vazifalarni hal qilish lozim:

- taʼlim va tarbiya jarayonlarida talabalarga taʼlimiy qadriyatlar haqida maʼlumotlar berib borish;
- boshlangʻich taʼlimda taʼlimiy qadriyatlarni oʻquvchilar ongiga singdirish metodikasini asoslab berish;
- taʼlimiy qadriyatlarini taʼlim jarayonida qoʻllashda zamonaviy pedagogik texnologiyasidan unumli foydalanish zarur.

ilmiy qadriyatlarni oʻrganishda talabalarda milliy gʻoya, milliy ong, milliy gʻurur tushunchalari ketma-ketligini shakllantirish lozim. Chunki milliy gʻururi boʻlmagan inson hech qachon Vatan boyligini qadriga yetmaydi, uni asrashni xayoliga ham keltirmaydi, yaʼni vatanparvar, fidoyi inson boʻlib yetisha olmaydi.

Shundan kelib chiqqan holda qadriyatlarga kompleks yondashuv asosida, fikr bildirishga harakat qilamiz. Qadr - kishining jamiyatda tutgan o‘rni, obro‘ - e’tibori, hurmati, nufuzi. Qadriyat - tevarak-atrofdagi narsalarning, kishining jamiyat uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatini ko‘rsatuvchi tushuncha bo‘lib, axloqiy tamoyildir. Qadriyat turlari quyidagilar:

- tabiiy qadriyatlar;
- moddiy qadriyatlar;
- ma’naviy qadriyatlar;

Qadriyatlar va ulardan ijtimoiy hamda pedagogik munosabatlarni tashkil etish jarayonida foydalanish borasidagi vazifalar — ta’lim mazmuni, uning jarayoni va «pedagog - o‘quvchi» tizimidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil etish asosiga kiritilishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

- 1.Choriyeva.S, Berdiyeva.M, Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ», ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПОДДЕРЖКА ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ,1135-1139,Выпуск №13 (том 3) (апрель, 2021)
- 2.Choriyeva .S.”Main Directions of Teacher Training and Improving Their Quality for the Preschool Education System”. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS) Volume: 01 Issue: 05 | 2022 ISSN: 2751-756X <http://innosci.org>.50-54 bet
- 3.Choriyeva .S.Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish, Новости образования: Исследование в XXI веке .№ 5 (100) декабрь 2022 г. 380-383 betlar
- 4.Choriyeva .S.Maktabgacha yoshdagi bolalarga STEAM ta’lim texnologiyasi asosida ta’lim –tarbiya berish, “Maktabgacha talimda ilg‘or tajriba va zamonaviy yondashuvlar:muammolar va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy–amaliy anjuman materiallari 2022-yil 23-sentabr 99-102 betlar
5. Choriyeva .S.Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish, Новости образования: Исследование в XXI веке № 5 (100) декабрь 2022 г. 380-383 betlar.
- 6.Choriyeva .S.Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik jihatdan tarbiyalash asosiy masala sifatida, Tadqiqotlar jahon ilmiy –metodik jurnali. 12-son\_1-to‘plam\_Aprel -23, 39-43 betlar
- 7.Choriyeva .S.Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim samaradorligini oshirishning ahamiyati. Tadqiqotlar jahon ilmiy –metodik jurnali.12-son\_1-to‘plam\_Aprel -23. 50-54 betlar

8. Choriyeva, S. Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari. Kasb-hunar ta'limi Профессиональное образование Professional education Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal 2023-yil, 3-son.

9. Yangiboyevna, Gafforova Hurriyat. "Content and Conditions of Pedagogical Work on the Development of Speech for Children from Birth to Five Years." EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY 2.1 (2022): 81-83.

10. Yangiboyevna, G. H. (2022). Content and Conditions of Pedagogical Work on the Development of Speech for Children from Birth to Five Years. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND

11. O Yangiboyevna G. H. Content and Conditions of Pedagogical Work on the Development of Speech for Children from Birth to Five Years //EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 81-83. PEN SOCIETY, 2(1), 81-83.